


# ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ

MS  
2022

ISSN 2181-6833



9 772181 683301

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

# PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal  
2022, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

## **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy  
**Elektron manzil:** ped\_mahorat@umail.uz

## **TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Mustafa Said Arslon, , filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

*To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor*

*To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Ne'matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по педагогике и психологии.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped\_mahorat@umail.uz

#### **РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Заместитель главного редактора:** Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

*Хамидов Обиджон Хафизович , доктор экономических наук, профессор*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муюссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Мустафа Саид Арслан, доктор филологических наук, профессор (Турция)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдыев Дурдымурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Каххаров Отабек Сиддинович, доктор экономических наук (DSc)*

*Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор педагогических наук (DSc)*

*Хайитов Шодмон, доктор исторических наук, профессор*

*Ражабов Кахрамон, доктор исторических наук, профессор*

*Тураев Халим Хожиевич, доктор исторических наук, профессор*

*Мухитдинова Хадича Собировна, доктор педагогических наук, профессор*

*Нийёметова Роза Хасановна, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук (DSc)*

*Курбонова Гулноз Нейматовна, доктор педагогических наук (DSc)*

## **PEDAGOGICAL SKILLS**

**The scientific-theoretical and methodical journal**

**2022, special release**

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped\_mahorat@umail.uz

### **EDITORIAL BOARD:**

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Deputy Editor:** Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.

**Editor:** Doctor of Pedagogical Sciences( DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

*Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I. Ibrahimov*

*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Philology, Prof. Mustafa Said Arslon (Turkey)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Economics Sciences Otabek S. Kahhorov*

*Doctor of Philology Kaxramon R. Tuxsanov*

*Doctor of Historical science, Prof. Sh. Hayitov*

*Doctor of Historical science, Prof. Halim H. Turaev*

*Doctor of Historical science, Prof. Q. Rajabov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Xadicha S. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Roza X. Niyozmetova*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*

|                                                                                                                                                |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Baxtiyor ADIZOV. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....          | 7  |
| Ширинбой ОЛИМОВ, Юлдуз САИДОВА. Талабалар маънавиятини ривожлантиришнинг йўналишлари .....                                                     | 10 |
| Bolta XODJAYEV. Shaxs ijtimoiylashuvida fuqarolik madaniyati muhim pedagogik omil sifatida .....                                               | 16 |
| Нодира МУСАЕВА, Нафиса МУСАЕВА. Разработка теоретических основ технологии неразрывности обучения основанной на педагогической таксономии ..... | 20 |
| Baxshillo UMAROV. Yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalari merosidan foydalanish imkoniyatlari .....                 | 24 |
| Кобилжон АБДУЛЛАЕВ. Приоритетные направления государственной образовательной политики в сфере дошкольного образования.....                     | 28 |
| Shabon FARMONOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....                   | 31 |
| Гулия ХАБИБОВА. Функция махаллы в современном обществе Узбекистана                                                                             | 36 |
| O'lmas QURBONOVA. Pedagogik fikrlar taraqqiyotining ayrim masalalari .....                                                                     | 39 |
| Manzura OCHILOVA. O'quvchilarning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishida al-Buxoriy ta'limotining o'rni .....                           | 42 |
| Bobomurod JURAYEV. Abushakur Balxiyning "Ofarinnoma" asarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari.....                                          | 45 |
| Gulchehra IZBULLAYEVA. Didaktik asarlarda do'stlik munosabati va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni .....                                       | 49 |
| Nargiza BAXRIYEVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanganlik dinamikasi .....                                            | 54 |
| Dildora TOSHEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashda tabiiy fanining o'rni va ahamiyati.....                               | 59 |
| Olimjon AHMADOV. Taraqqiyparvarlarning Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishga qaratilgan g'oya va qarashlari .....                    | 63 |
| Oybek ORTIQOV. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....            | 66 |
| Matluba XOJIYEVA. Abu Rayhon Beruniyning axloqiy qarashlari .....                                                                              | 70 |
| Nigina ISMATOVA. Yoshlarni oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usul va vositalari .....                    | 76 |
| Lola ELIBOYEVA. Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari .....                                             | 80 |
| Feruza RAMAZONOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy e'tiqod tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari .....                          | 86 |
| Ma'rifat UMUROVA. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda milliy merosning o'rni .....                                   | 89 |
| Nilufar RAXIMOVA. Tasavvuf ta'limotining tarbiyaviy ahamiyati .....                                                                            | 93 |
| Mirjon AMONOV. O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari va mezonlari.....                                             | 96 |

|                                                                                                                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Sitora SHARIPOVA. Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy – gumanitar fanlarni muammoli ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish pedagogik muammo sifatida.... | 100 |
| Alimova SHAMSIYA. O'quvchilarda o'z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko'nikmalarini shakllantirish .....                                            | 106 |
| Rayima NEMATOVA. Oliy ta'limda hamkorlikdagi faoliyatning shakllanishi va uning o'ziga xos psixologik xususiyatlari .....                                 | 111 |
| Zuxriddin Shernazarov. Abdulla Avloniyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari .....                                   | 113 |
| Malika UMEDJANOVA. Mutafakkirlar ma'naviy merosida aksiologik yondashuv asosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarining yoritilishi .....     | 116 |
| Bolta XODJAYEV, Shaxlo XALILOVA. O'qituvchi va o'quvchi pedagogik mulqoti ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omili .....                | 120 |
| Umida FAYZIYEVA. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish yo'llari .....                                                | 125 |
| Анвар НУСПАТОВ. XVI-XVII асрларда Бухоро хонлигида илм-фан ривожига ва унинг педагогик шарт-шароитлари.....                                               | 129 |
| Акбар ГУЛБОЕВ. Малака ошириш тизимидаги педагог-ходимлар касбий махоратини оширишнинг педагогик шарт-шароитлари .....                                     | 132 |
| Sitora UMAROVA. Muhammad Avfiy Buxoriy hikoyatlarida ayol siymosining namoyon bo'lishi .....                                                              | 137 |
| Муножатхон АСПАНБАЕВА. Нотўлиқ оилаларда болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг асосий йўналишлари .....                                                  | 143 |
| Habib SODIQOV. Bo'lajak haydovchi etikasini tarbiyalash – muhim pedagogik muammo sifatida .....                                                           | 149 |
| M.D.Nomozova, K.M. Муқимов. Наноструктураларда ёруғликнинг гигант комбинацион сочилиши (ЁКС) ва комбинацион сочилиш спектрометри                          | 151 |
| Aziza Babakeldiyeva. O'yinlar vositasida bola shaxsini shakllantirish .....                                                                               | 155 |
| Munavvar Sheraliyeva. Oilaviy tarbiya uslublari va ota-onalarning munosabatlar ma'naviyati .....                                                          | 158 |
| Б.Б.Адизов, Ф.К.Абдуллоев. Республиканинг олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш орқали тизимли ривожланиши .....                          | 160 |
| Урал Айтувганов. Творческого мышления как категории науки и познавательного процесса личности.....                                                        | 163 |

---

## MUTAFAKKIRLAR MA'NAVIY MEROSIDA AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MASALALARINING YORITILISHI

---

*Ushbu maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarining mutafakkirlar ma'naviy merosida bayon etilganligi, yoshlar tarbiyasining milliy va ma'naviy negizlari yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** oila, an'ana, oila munosabatlari, oila qurish yoshi, milliy urf – odat, milliy g'urur, ma'naviy meros, aksiologik yondashuv, tarbiya, oilaviy muhit, oilaning jamiyatdagi o'rni.

*В данной статье рассматриваются вопросы подготовки молодежи к семейной жизни в духовном наследии мыслителей, национальные и духовные основы воспитания молодежи.*

**Ключевые слова:** семья, традиция, семейные отношения, брачный возраст, национальные традиции, национальная гордость, духовное наследие, аксиологический подход, воспитание, семейная среда, роль семьи в обществе.

*The article describes the issues of preparing young people for family life in the spiritual heritage of thinkers, the national and spiritual foundations of youth education.*

**Keywords:** family, tradition, family relations, age of marriage, national traditions, national pride, spiritual heritage, axiological approach, upbringing, family environment, the role of the family in society.

**Kirish.** O'zbekiston ta'lim islohotlarida yoshlarni milliy qadriyatlar, ajdodlarimizning boy tajribasi asosida tarbiyalashga keng imkoniyat asosida yaratilgan. Ushbu imkoniyatlar ta'lim-tarbiya jarayonida qadriyatli yondashuvlar o'z aksini topgan. Jumladan, aksiologik yondashuv boy, intellektual meros hamda tarbiya manbai bo'lib, har tomonlama kamol topgan jamiyat va oilada o'z mavqeiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishda asosiy bilimlar majmui sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham olimlar milliy qadriyatlar, uning tarbiyaviy ta'siriga katta e'tibor berganlar.

Yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatni singdirish murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodning ongi va qalbiga milliy qadrni singdirish, ularning g'oyaviy dunyoqarashini shakllantirish jarayonida ta'lim-tarbiyaning, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning sinalgan, samarador, zamonaviy usullari, shakllari, vositalaridan keng foydalanishni talab qiladi. Buning uchun aksiologik yondashuvni o'rganishning asosiy tamoyillarini quyidagilarda iborat:

- milliy qadriyatning aniq maqsadga qaratilganligi, jumladan, “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi”, “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi” (ijtimoiy buyurtma) bilan muvofiqligi;
- ilmiylik (har bir tarbiyaviy jarayon elementlarining puxta asoslanganligi, samaralidorlikning puxta asoslanganligi, samaradorlikning tajriba asosida baholanishi);
- texnologik shart-sharoitning ta'minlanganligi (ko'zda tutilgan natijani kafolatli loyihalash va amalga oshirish);
- uzviylik, uzluksizlik (o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar negizida yangi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirib borish, ularning navbatdagi bosqich uchun asos bo'lishiga erishish);
- individual yondashuv (har bir tarbiyalanuvchining shaxsi bilan yaqindan tanishish, uning xarakteri, ehtiyojlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy sifatlarini o'rganish va ularga tayanib ish ko'rish);
- modernizatsiya (tarbiyaviy tadbirlarni bugungi kun talablari darajasida tashkil etish, zamon bilan hamnafas bo'lish);
- intensivatsiya (tarbiyaviy jarayonning ta'sirchanligi va jadalligi);
- tarbiyaviy jarayonda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlariga tayanish (mavjud ijobiy fazilatlar negizida yangi sifatlarni tarbiyalash salbiy illatlarni bartaraf etib borish);
- tarbiyaviy jarayonning dinamik xususiyatga egaligi (shakllantiradigan fazilat to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lish – tushunchani hosil qilish – bilimga ega bo'lish – ko'nikmaning shakllanishiga erishish – malakani hosil qilish – odatning shakllanishiga ega bo'lish – muayyan ma'naviy-axloqiy fazilatning mavjud darajasi);
- tarbiyalanuvchilarning yosh, pedagogik psixologik, milliy va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olish;
- ta'lim va tarbiya birligi;

- yaxlit yondashuv (tarbiya jarayoniga mas'ul subyektlar tomonidan tarbiyaviy maqsadning bir xil tushunilishi);

- pedagogik hamkorlik (tarbiya jarayoni subyektlari – oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish va mustahkamlash).

Aksiologik yondashuv mohiyati – insonning jamiyatdagi hayotining o'zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi, tarbiya hayotga tayyorlashga, shaxsiya qadriyatli yo'nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarni o'zlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etiladi. Shu asosda, yoshlarni aksiologik yondashuv asosida oilaviy hayotga tayyorlash mutafakkirlarimizning boy merosini borishimiz lozim.

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan, jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizouddin Ibn Faxriddin kabi allomalar bu masala yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sharq mutafakkirlari farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelganlar. Hindlarning mashhur "Panchatantra" (Kalila va dimna), "Shukasaptati" (To'tinoma) eposi, Yusuf Xos Hujibning "Qutadg'u bilig" (Baxt saodatga yo'llovchi bilim), Farididdun Attorning qator asarlari, Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning qator asarlari, Gulxaniyning "Zarbulmasal" va boshqa o'nlab didaktik asarlar asrlar mobaynida farzandlar tarbiyasida amaliy dastur vazifasida xizmat qilmoqda. Bu manbalarda o'g'il-qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oila muqaddas, uni avaylab asrash aynan uy boshqaruvi bekalarga bog'liq masalalar haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar hikoya qilinadi. Tarbiya hamma zamonlarda eng dolzarb masala bo'lib kelayotgani sir emas. Unsurulmaoliy Kaykovus qalamiga mansub "Qobusnoma" asari Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhur. Mo'jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikochalar kitobning yanada jozibali, mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

XI asrning 82-83 yillarida G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab "Nasihatnoma"ni yaratadi va o'sha davr an'anasiga ko'ra, uni bobosi podshoh Shamsul maoliu Qobus sharafiga "Qobusnoma" deb ataydi. "Qobusnoma" rus va G'arb sharqshunoslarining, Sharq olimlari va pedagoglarining diqqatini anchadan beri o'ziga tortib keladi. Asar turk (1432, 1705), uyg'ur (1786-87), nemis (1811), uzbek (1860, Ogahiy tomo-nidan), tatar (1881), fransuz va rus (1886) tillariga tarjima qilingan. Ogahiy tarjimasining 2 qo'lyozma nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida, yana bir qo'lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi xalq kutubonasida saklanadi. «Qobusnoma»ning Subtoy Dolimov tomonidan hozirgi o'zbek tiliga o'girilgan nusxasi Toshkentda 3 marta nashr qilingan.

Sharq allomalari axloqiy-tarbiyaviy asarlarning asosini Qur'oni karim suralari, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatlar, hikoyalar tashkil qiladi. Didaktik asarlar tuzilishiga ko'ra avvalo Olooh, Payg'ambarlar, avliyolarga hamdu sanolar va keyingi boblar inson uchun daxldor muammolarga e'tibor qaratiladi. Asarda diniy, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy hamda madaniy odob-aqloq qoidalari keltiriladi. Kaykovusning "Qobusnoma"si ham shu tartibda tuzilgan.

Shu o'rinda, Kaykovusning– 63 yoshida o'g'li Gilonshohga atab yozgan «Qobusnoma»sida bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etib o'tilgan. "Qobusnoma" asosini Qur'oni karim suralari, Muhammad (sav)ning faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg'ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne'matiga shukur qilmoq haqida bo'lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san'atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o'rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi. Asarda hunar va ilm jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari deb qaraladi. Odamlar 3 guruhga bo'linib, ularning jamiyatda tutgan o'rni belgilanadi; odamlarning fazilatlar ham 3 guruhga bo'linadi: aqllilik, haqgo'ylik, juvonmardlik[7].

Asar, o'zligini tanimoq, shukr qilmoq, insonparvar bo'lmoq, notiq bo'lmoq, vaqt qadriga yetmoq, har ishda tartibli bo'lmoq, me'yorni bilmoq, mehmondo'st bo'lmoq, odobli bo'lmoq, mehr- muhabbatli bo'lmoq, naf' olmoq, tozalikka rioya qilmoq, orom olmoq, chiniqmoq, o'zini va yurtini himoya qilmoq, mol jamlamoq, omonatni saqlamoq, ish yuritishni bilmoq, savdo-sotiqni bilmoq, oila qurmoq, farzand tarbiyalamoq, do'st tutmoq, ogoh bo'lmoq, kechirimli, oqibatli bo'lmoq, ilm egallamoq, boshqaruvni bilmoq, tibbiyotdan xabardor bo'lmoq, hisob-kitobni, o'lchovni bilmoq, madaniyatli bo'lmoq, halqqa xizmat qilmoq, ma'rifatli bo'lmoq, juvonmard (saxiy, maruvvatli) bo'lmoq kabi har bir insonga zarur va egalashi lozim bo'lgan ijtimoiy faoliyatlar haqida nasihat, maslahat, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olgan.

Asarda keltirilgan mavzular qamrovi yuksak ta'limiy hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu o'rinda, muallif ham o'z davrining qomusiy bilimdoni, u diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan mutafakkir

sifatida gavdalanadi. Yana mutafakkirning ko'pgina didaktik asarlar bilan yaqindan tanish ekanligi, har bir fikrni asosli, manbalar bilan izohlashini kuzatishimiz mumkin. Masalan, "ushbu ma'lumotni ushbu kitobdan izlag'il" kabi pedagogik yondashuvi asarning boshidan oxirigacha kuzatiladi. Asarda Kaykovus tomonidan taqdim etilayotgan har bir fikr mantiqan: tahlil, sintez, taqqoslash, induksiya, diduksiya, abduksiya metodlariga asoslanadi.

Muallif "Aqlning quvvati hikmatda", deydi. Shu o'rinda asarning quvvati Sharq va G'arb mutafakkirlarining didaktik asarlaridan keltirilgan ta'limiy va tarbiyaviy masalalar, bir-birini to'ldiruvchi Qur'oni karim suralari, hadis, masnaviy, ruboiy, hikmatli so'z, hikoyalarda desak xato bo'lmaydi.

Ushbu asar asrlar davomida maktablarda darslik sifatida ta'lim mazunini boyitib, ilm ahli uchun dasturul amal bo'lib keldi. Jumladan keyinchalik, "Qobusnoma"da keltirilgan hikmatlar, hikoyalardan Avfiy Buxoriy, Alisher Navoiy va boshqa ko'pgina allomalar o'zlarining didaktik asarlarida unumli foydalandilar.

"Qobusnoma"da tarbiyaviy masalasining mohiyati ochib beriladi va muhokama qilinadi. Har bir bob so'ngida keyingi bob muammosi borasida fikr keltiriladi va keyingi tarbiya mazmuniga zamin yaratiladi. Asarning har bir bobini "Keys stadi" metodi misolida qarash mumkin. Har bir bobda tarbiyaning bir muhim jihati, muammosiga e'tibor qaratilganligi bilan xarakterlidir. Muallif tomonidan tanlangan ta'lim va tarbiyaning shakl, metod va vositalari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Asarda ta'lim va tarbiyaning quyidagi shakl, metod va vositalaridan foydalanilgan: shakl – individual, guruhli, jamoaviy; metod – nazariy (hikoya, misol, namuna), amaliy (mashg'ulot, takrorlash, suhbat); vosita – kitob (allomalar hikmatli so'zlari), nutq, maslahat, an'ana, odat. Ushbu asarni bir ovozdan pandnoma asar desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

"Qobusnoma"ning birinchi bobida "Payg'ambarlarning xilqati zikrida" Kaykovus Olloh hech narsani vositasiz paydo qilmadi, deydi. "Chun vosita bo'lmasa, hech nimarsada sharafi maqom va tarbiyat bo'lmag'usidir va chun fe'l nizomsiz bo'lmag'usidir," – deb, yuksak maqom (martaba), tarbiya, intizomli fe'l kabi kamolot darajalarini ajratib ko'rsatadi. Muallif ushbu darajalarga erishish uchun ulus(xalq)ga adolat, siyosat va tarbiya qilish lozim, deydi.

Kaykovus "Taolloning shukurguzarlig'i zikrida" ushbu fikrlarni mantiqan davom ettirib har kishi "har jamoatg'a tobe" bo'lmoq tilasa, ul jamoat bila suhbat qilmoq kerakdur. Chun har kishi badbaxt va gunohkor bo'lmoq tilasa, yomonlarning suhbatini ixtiyor qilur va har kishi baxt va davlatmand bo'lmoq tilasa, yaxshilarg'a tobe" bo'lmoqni g'animat bilur va aqlli jamoa suhbatini ixtiyor qilur... Bas ey farzand, hamisha davlatlig' va ne'matlig' va rohatlig' bo'lmoq tilasang, solih (salohiyatli kishi) odamlar bila hamsuhbat bo'lg'il", deydi.

Qobusnomaning "Ota va ona haqini bilmak zikrida", "o'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishin talasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lg'il, nedinkim, sen ota-onanga nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydur", deydi.

Aql noyob ma'naviy hodisa. Aql tufayli inson o'z his tuyg'ularini, olingan xabarlarini muayyan tartibga keltiradi, ularning rost yoki yolg'on ekanini aniqlaydi. Muallif aqlni ta'rif etar ekan, "bilg'il, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvga oqmas. Bas, agar aqling bo'lsa, hunar o'rgang'il, nedinkim, hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdur. Undoqkim debdurlar: al-adab – suratil-aql (bilim - aqlning surati)", deb keltiradi.

Demak, Kaykovus mehnatning asosiy shakli bo'lmish aqliy mehnatni insonning ma'naviy taraqqiyotida bevosita ta'sirini ko'rsatib berati. Aql mahsulini hunar (bilim) egallash bilan uyg'unlashtiradi.

Kaykovus dunyodagi mavjudotni bir- biri bilan bog'liq va murosasiz deb talqin qiladi. U kishi ruhiyatini ham 2 guruhga bo'ladi: jismoniy sezgini modda, ruhiy hissiyotni esa «jon» bilan bog'laydi va bularning birini moddiy, ikkinchisini ruhiy hayot mahsuli deb ko'rsatadi. Uning fikricha, dunyodagi hamma narsalar yaralishi va mohiyat e'tibori bilan ilohiydir. Zero, inson Allohni tanimoq uchun avvalambor o'zini bilmog'i, ya'ni «sozga qarab sozandani tanimog'i lozim», deydi. Bu kabi masalalar kitobda ixcham hikoyatlar, rivoyatlar, she'r va latifalar, maqol va hikmatlar yordamida bayon qilinadi.

Yoshlar, xususan, yoshlar tarbiyasida e'tiborli masalalardan biri vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash va ularni yanada kuchaytirish zarurdir. Xalqimiz e'tiqodsiz kishini o'zansiz daryoga o'xshatadi, shu sababli yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalaridan biri yoshlarda iymon-ehtiqodni shakllantirishdir. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparavarlik kabi ezgu fazilatlarini sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan. Endilikda bizning vazifamiz ana shu an'anani yanada taraqqiy ettirib o'z xalqimiz, avvalo yoshlarimiz tafakkuriga mos, tushunarli va yaqin bo'lgan sharq falsafasi bilan bir qatorda islom ta'limotidan ham bekamu ko'st foydalanmog'imiz lozim.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish insonning axloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo'lgan insonning, jumladan, yoshning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, dunyoqarash-bu kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va hakoza qarashlari va tasavvurlari majmuasidan iborat. Demak, dunyoqarash olam haqidagi yaxlit, umumlashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p ma'lumotga, bilimga ega bo'lsalar, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi.


Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqeylikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholash hamdir. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilib baholangach, insonning, yoshning tevarak-atrofdagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita, amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyoqarash yoshning voqeylikdagi o'z o'rni va rolini belgilab beradigan ongli ravishda to'plangan, izohlangan va baholangan bilimlar majmuasidir. Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilish va baholashga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, niyat va maqsadlari, orzu-umidlari, ular faoliyatiga ma'lum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlar, xususan, milliy qadriyatlar ham kiradi. Mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarash-ijtimoiy borliqning in'ikosi bo'lib, u muayyan tarixiy davrda insoniyat yaratgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

**Xulosa:** Sharq mutafakkirlari jamiyatni ilmiy asosda boshqarish masalalariga katta e'tibor berib kelganlar. Mutafakkirlarning ma'naviy merosida o'g'il-qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oila muqaddas, uni avaylab asrash aynan ular bilan bog'liq masalalar haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar hikoya qilinadi. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim jihatlaridan birini mamlakatda milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usini qaror toptirish tashkil qiladi.

Allomalarimiz asarlarida ta'kidlanganidek, insonning ma'naviy kamolotida jismoniy va badan tarbiyasidan tashqari aqliy tarbiya va go'zallik tarbiyasining, shuningdek, axloqiy, ruhiy, diniy tarbiyaning ham ahamiyati shak-shubhasizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova O. "Oila huquqi asoslari" –t.: 2003.
2. Sodiqova T. "O'g'lim senga aytaman, qizlarga atalgan so'zlar". –T.: Sharq, 2005.
3. Xidirova F. "Oilada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash" –T.: 2007
4. Sattarov M. «O'zbek urf-odatları» T. 2000 y.
5. Қобуснома/ Кайковус; форсчадан Муҳаммад Ризо Огаҳий тарж.; нашрга тайёрловчилар. С.Долимов, У. Долимов. – Т.: «O'qituvchi», 2011. – 208 б. 29-376.
6. <https://www.9apps.com/ru/downloading/android-softs/kobusnoma/>



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
 “PEDAGOGIK MAHORAT”  
 ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
 barcha ta’lim muassasalarini  
 hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
 Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

**BuxDU 400110860064017950100079002**

***Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!***

|                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>PEDAGOGIK<br/>MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik<br/>jurnal</b></p> <p><b>2022-yil<br/>maxsus son</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan<br/>chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p> | <p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:<br/>Alijon HAMROYEV.</b></p> <p><b>Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.</b></p> <p><b>Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova</b></p> | <p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 12.06.2022<br/>       Bosmaxonaga topshirish vaqti<br/>       21.06.2022<br/>       Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8<br/>       Tezkor bosma usulda bosildi.<br/>       Shartli bosma tabog‘i – 20,6<br/>       Adadi – 100 nusxa<br/>       Buyurtma № 315<br/>       Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ<br/>       bosmaxonasida chop etildi.<br/>       Bosmaxona manzili: Buxoro shahri<br/>       M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p> |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|